



UDK: 811.82:452

**Gavhar XO'JAMBERDIYEVA,**  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*  
E-mail: [gavhar0697@gmail.com](mailto:gavhar0697@gmail.com)

*Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD O'.Xudonazarova taqrizi asosida*

## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI KONNOTATSIYALARIDA AGE/YOSH KONSEPTI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida yosh konseptining konnotativ ifodalanishi qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Yosh va keksalik tushunchalari har ikkala tilda qanday ijobiy yoki salbiy baholovchi ma'no yuklayotgani lingvistik va madaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tilshunos olimlar – Y.D. Apresean, V.N. Telia, G. Lakoff va M. Johnsonlarning konnotatsiya va metafora nazariyalariga tayanilgan holda, yosh bilan bog'liq stereotiplar, emotsional va baholovchi ma'nolar hamda kognitiv model orqali shakllangan til birliklari izohlanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek tilida keksalik ko'proq ijobiy (donolik, hurmat), ingliz tilida esa yoshlik (erkinlik, innovatsiya) ko'proq ijobiy konnotatsiya bilan ifodalanishi aniqlanadi. Ushbu farqlar har bir til va madaniyatda yoshga bo'lgan munosabat va qadriyatlar bilan bog'liq ekani ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Konnotatsiya, yosh konsepti, keksalik, til va madaniyat, baholovchi ma'no, kognitiv metafora, O'zbek tili, Ingliz tili, lingvistik stereotip, ijobiy va salbiy baho.

## КОНЦЕПТ AGE/ВОЗРАСТ В КОННОТАЦИЯХ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается коннотативное выражение концепта возраста в узбекском и английском языках на основе сравнительного анализа. Анализируется, какие положительные или отрицательные оценочные значения придаются понятиям «молодость» и «старость» в каждом из этих языков с лингвистической и культурной точек зрения. Основываясь на теориях коннотации и метафоры таких лингвистов, как Ю.Д. Апресян, В.Н. Телия, Дж. Лакофф и М. Джонсон, рассматриваются стереотипы, эмоциональные и оценочные значения, а также языковые единицы, сформированные через когнитивные модели, связанные с возрастом. В результате анализа установлено, что в узбекском языке старость чаще выражается с положительной коннотацией (мудрость, уважение), в то время как в английском языке молодость ассоциируется с положительными значениями (свобода, инновации). Эти различия отражают отношение к возрасту и ценности, присущие каждой языковой и культурной среде.

**Ключевые слова:** Коннотация, концепт возраста, старость, язык и культура, оценочное значение, когнитивная метафора, узбекский язык, английский язык, лингвистический стереотип, положительная и отрицательная оценка.

## CONNOTATIONS OF THE AGE CONCEPT IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

This article examines the connotative representation of the age concept in Uzbek and English through comparative analysis. It explores how the notions of youth and old age carry positive or negative evaluative meanings in both languages from linguistic and cultural perspectives. Drawing on the theories of connotation and metaphor by linguists such as Y.D. Apresean, V.N. Telia, G. Lakoff, and M. Johnson, the study analyzes age-related stereotypes, emotional and evaluative meanings, and linguistic expressions formed through cognitive models. The findings reveal that in the Uzbek language, old age is more frequently associated with positive connotations (wisdom, respect), whereas in English, youth is more often linked to positive meanings (freedom, innovation). These differences are shown to reflect the respective cultural values and attitudes toward age in each linguistic community.

**Key words:** Connotation, age concept, old age, language and culture, evaluative meaning, cognitive metaphor, Uzbek language, English language, linguistic stereotype, positive and negative evaluation.

**Kirish.** “Konnotatsiya” atamasi tilshunoslikning turli sohalarida qo'llaniladi. Bu sohalariga leksik semantika, uslubshunoslik, ifoda vositalari nazariyasi va intertekstuallik kiradi. Konnotatsiya ochiq yoki yashirin shaklda konseptual tahlil, arxetiplar va kundalik ongda mifologemalarni o'rganishda ham ishtirok etadi. Shunday qilib, konnotatsiya bilan turli xildagi ko'plab hodisalar bog'liq bo'lib, bu holat atamaning ma'nosi asta-sekin ravshanligini yo'qotayotganidan yoki homonimlikka aylanishidan dalolat beradi. Biroq, boshqa bir yondashuv ham mavjud, ya'ni konnotatsiya deb ataladigan barcha hodisalarda mavjud bo'lgan umumiy jihatni aniqlab, aynan shu jihatni atamaning mazmuni sifatida belgilash. Quyidagi matnda aynan ikkinchi yondashuv doirasida fikr yuritishga harakat qilinadi: “Denotatsiya” va “konnotatsiya”

atamalarini dastlab mantiqda qo'llanilib, tushuncha bilan bog'liq bo'lgan. Har bir ot biror narsani denotatsiyalaydi va shu narsaga xos sifatlarni konnotatsiyalaydi. Masalan, “it” so'zi barcha itlar oilasini va ularning har bir a'zosini bildiradi (ya'ni tushunchaning hajmi) va shu oilaga xos sifatlarni bildiradi (ya'ni tushunchaning mazmuni) [2]. Ushbu tushuncha leksik semantika doirasida atamani qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qilgan, biroq keyinchalik aniqlashtirilgan va o'zgartirilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tilshunos olimlardan Y.D. Apresean [6], V.N. Telia [7], G. Lakoff va M. Johnson [2] kabilarning konnotatsiya va metafora haqidagi nazariyalari bu jarayonni tahlil qilishda samarali asos bo'lib xizmat qiladi. Leksik birlikning konnotatsiyasi deb biz bu birlik ifodalayotgan tushunchaga xos bo'lmagan, ammo

barqaror belgilarning majmuasini tushunamiz. Bu belgilar mazkur til jamoasida shu narsa yoki hodisa haqidagi bahoni bildiradi [6]. Masalan, «xo'roz» so'zi «tovuqning erkagi» ma'nosida «jangarilik» belgisini konnotatsiyalaydi: «jangari odam — xuddi xo'roz, jangarilik konnotatsiyasi asosida». Boshqacha yondashgan bo'lsa-da, xuddi shu mavzuni — so'zlarning ko'chma ma'nolari va umumtil metaforalari haqida V. N. Teliya o'zining mashhur monografiyasida yozgan [7].

Shuningdek, leksik ma'no to'liq ma'noli bo'lmagan so'zlar, masalan, otlar, miqdor bildiruvchilar, ko'rsatkichlar, bog'lovchilar, olmoshlar, undov so'zlar kabi birliklarga xosmi yoki yo'qmi degan masala leksik semantika doirasida maxsus ko'rib chiqilmaydi. Konnotatsiya — bu so'zning asosiy (denotativ) ma'nosidan tashqari, u bilan bog'liq baholovchi, emotsional, madaniy yoki assotsiativ ma'no qatlamidir. Yosh konsepti nafaqat tilda, balki tafakkurda ham chuqur ildiz otgan bo'lib, kognitiv metaforalar orqali insonning hayotiy yo'li tasvirlanadi. Masalan, G. Lakoff va M. Johnsonning “Life is a journey” metaforasi doirasida yoshlik yo'lining boshlanishi, imkoniyatlar manzili sifatida, keksalik esa yo'lining oxiri, to'xtash nuqtasi sifatida ifodalanadi [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek va ingliz tillari konnotatsiyalarida age/yosh konseptini yoritib berishga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning chog'ishtirma tahlil, deskriptiv tahlil usuli, analiz, sintez kabi usullaridan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ingliz tilida «to embark on life», «youth is a journey of discovery», «he reached the twilight of his life» kabi ifodalar bu metaforaning amal qilishini tasdiqlaydi. O'zbek tilida esa “hayot yo'li”, “hayot maktabi”, “keksalik poyoniga yetmoq” kabi iboralar kognitiv model asosida shakllanganligini ko'rsatadi [8].

Yoshga oid konnotatsiyalar, ya'ni yosh va keksalik tushunchalarining ijobiy yoki salbiy baholanishi har bir til va madaniyatda turlicha semantik nuqtai nazardan ifodalanadi. Konnotatsiya jamiyatning til tizimida mustahkamlangan barqaror, baholovchi belgilarning ifodasidir. Bu baholar jamiyat ongidagi stereotiplar asosida shakllanadi. So'zlarning ko'chma va metaforik ma'nolari orqali milliy-madaniy konnotatsiyalar yuzaga chiqadi. Yosh tushunchasi ko'pincha kognitiv metaforalar orqali ifodalanadi: “yosh = yangilik”, “keksalik = eskilik”. Ingliz tilida yosh konsepti G. Lakoff va M. Johnson kabi olimlarning “Life is a journey” metaforasida yaqqol aks etadi. Yoshlik — boshlanish, imkoniyatlar,

1-jadval. Ijobiy konnotatsiyalar

| Tushuncha | O'zbek tili       | Ingliz tili                | Farq                                                                                     |
|-----------|-------------------|----------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|
| Yoshlik   | Jo'shqinlik, kuch | Freedom, potential, energy | O'zbek tilida hissiylik va faoliyat, ingliz tilida erkinlik va imkoniyatlar urg'ulanadi. |
| Keksalik  | Donolik, hurmat   | Wisdom, experience         | O'zbek tilida bu jismoniy zaiflik, ingliz tilida esa fikriy eskilik sifatida baholanadi. |

2-jadval. Salbiy konnotatsiyalar

| Tushuncha | O'zbek tili              | Ingliz tili           | Farq                                                                                               |
|-----------|--------------------------|-----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Yoshlik   | Tajribasizlik, g'afillik | Naivety, inexperience | Farqlar uncha katta emas, lekin ingliz tilida bu tushunchalar ko'proq yumshoq kontekstdan chiqadi. |
| Keksalik  | Zaiflik, harakatsizlik   | Outdated, rigid       | O'zbek tilida bu jismoniy zaiflik, ingliz tilida esa fikriy eskilik sifatida baholanadi.           |

Yoshga nisbatan konnotatsiyalar jins omiliga bog'liq ravishda ham farqlanishi mumkin. Masalan, ingliz tilida “old man” va “old woman” iborolari orasida ma'no jihatdan sezilarli farq mavjud. “Old woman” ko'pincha ijtimoiy kontekstdagi zaiflik, loqaydlik yoki konservatizm bilan bog'lanadi (“a grumpy old woman”), “old man” esa ba'zida

keksalik — yo'lining oxiri sifatida talqin etiladi: “Keksa biladi, keksa so'zidan chiqma” — keksalarga hurmat, donolik konnotatsiyasi. “Yosh bola bilarmidi, to'ng'ich bo'lmasam” — yoshlar tajribasiz, keksalar yetuk. “Young and free”, “youth-driven innovation” — yoshlik erkinlik va yangi g'oyalarga bog'langan. “He's stuck in the old ways”, “old-fashioned thinking” — keksalik salbiy, yangilikdan orqada qolish bilan bog'liq [8].

O'zbek tilida yosh energetik-hissiy metaforalar bilan bog'liq: “qonli, jo'shqin, sho'x”. Ingliz tilida yosh — faollik, mustaqillik va potensial orqali ifodalanadi: freedom, opportunity, youth culture. “Yosh” konsepti konnotatsion jihatdan murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u turli til va madaniyatlarda har xil baholovchi ma'nolar bilan boyitilgan. Ushbu konsept ko'pincha faollik, energiya, yangilik, imkoniyatlar kabi ijobiy semantik elementlar bilan bog'lanadi. Ayniqsa, ingliz tilida “youth” atamasi “freedom”, “innovation”, “future”, “open-mindedness” kabi ijobiy konnotatsiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan, “youth-driven change”, “young and talented”, “youth is power” kabi iboralar yoshlikni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy dvigateli sifatida ko'rsatadi [8].

O'zbek tilida ham “yosh” konsepti “jo'shqinlik”, “kuch-g'ayrat”, “intilish”, “kelajak” kabi ijobiy ifodalar bilan uyg'unlashadi: “yoshlar kelajagimiz tayanchi”, “yoshlar — vatan tayanchi” kabi shiorlar buning dalilidir. Shu bilan birga, yoshga nisbatan ayrim salbiy konnotatsiyalar ham mavjud bo'lib, ular ko'pincha tajribasizlik, emotsional beqarorlik yoki ehtiyotsizlik bilan bog'lanadi. Masalan, “yosh bola bilarmidi”, “yoshlarning gapiga ishonib bo'lmaydi” kabi ifodalar yoshlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashuvni bildiradi. Shuningdek, yosh konsepti metaforik ko'rinishda ko'plab til birliklarida aks etadi. Kognitiv metaforalarda yoshlik odatda “bahor”, “tong”, “yangi sahifa” kabi obrazlar bilan ifodalanadi. Masalan, ingliz tilida “springtime of life” yoki “dawn of youth” kabi iboralar mavjud. O'zbek tilida esa “yosh ko'ngil”, “jo'shqin yoshlar”, “yangi nafas” kabi birikmalar ko'proq hissiy va obrazli konnotatsiyalarni beradi. Bunday metaforik ifodalar yosh konseptining faqat biologik holat emas, balki madaniy, psixologik va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi [1].

Keksalik esa o'zbek madaniyatida ijtimoiy qadriyat sifatida, hurmat konnotatsiyasi bilan ifodalanadi. Ingliz tilida keksalik atamasi ko'proq funksional holat yoki jamiyatdan chekinish sifatida qaraladi.

donolik yoki mas'uliyat timsoli sifatida ishlatiladi. O'zbek tilida esa “keksalar”, “momolar”, “ota-onalar” iborolari hurmat bilan qo'llaniladi, ammo ayol kishining keksaligi go'zallik tushunchasi bilan qarama-qarshi qo'yilishi mumkin. Bu esa yoshga oid konnotatsiyalarda ijtimoiy va gender stereotiplarning kuchli ta'sirini ko'rsatadi. Jahon tillarida ham

bu tendensiyalar mavjud. Misol uchun, fransuz tilida “vieille femme” (keksa ayol) iborasi deyarli hech qachon ijobiy ma’noda ishlatilmaydi, holbuki “vieux monsieur” (keksa janob) iborasi odobli va hurmatga loyiq kishini ifodalashi mumkin. Bu holatlar yoshga oid konnotatsiyalarning jinsiy stereotiplar bilan qanchalik chuqur bog’liq ekanligini ko’rsatadi. Shunday qilib, yoshga nisbatan baholovchi yondashuvlar nafaqat til va madaniyatga, balki jins omiliga ham bevosita taalluqli bo’lib, ijtimoiy ongda shakllangan gender stereotiplari orqali mustahkamlanadi [3].

**Xulosa va takliflar.** Yosh konseptining konnotativ ifodalanishi o’zbek va ingliz tillarida muhim semantik va madaniy farqlar bilan ajralib turadi. O’zbek tilida keksalik tushunchasi ko’pincha hurmat, donolik, tajriba kabi ijobiy konnotatsiyalar bilan bog’langan bo’lsa, yoshlik esa

jo’shqinlik, hissiylik, ba’zan beqarorlik bilan ifodalanadi. Ingliz tilida esa aksincha, yoshlik — erkinlik, mustaqillik, innovatsion fikrlash kabi pozitiv baholarni anglatadi, keksalik esa ko’proq eskilik, faoliyatdan chekinish, yangilikka yopiq bo’lish kabi salbiy konnotatsiyalar bilan ifodalanadi. Ushbu farqlar til orqali har bir madaniyatda yoshga bo’lgan ijtimoiy munosabat, qadriyatlar tizimi, va stereotiplar asosida shakllanishini ko’rsatadi. Shunday qilib, yoshga oid konnotatsiyalar har ikki tilning nafaqat lug’aviy boyligi, balki ularning madaniy tafakkurini ham aks ettiradi. Xulosa qilib aytganda, “yosh” konsepti konnotatsiyalarda nafaqat ijobiy energiya va umid ramzi sifatida, balki tajribasizlik, xavf va o’zgaruvchanlik belgisi sifatida ham namoyon bo’ladi. Bu konnotatsiyalar har bir til va madaniyatda yoshga nisbatan ijtimoiy munosabatning aksidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. A. Leksikologiya va frazeologiya asoslari. – Toshkent: O’zbekiston, 2005. – 280 b.
2. Lakoff G., Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
3. Madrahimov N. N. Til va tafakkur: kognitiv yondashuv asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 216 b.
4. Shodiyev A. Semasiologiyaga kirish. – Toshkent: O’zbekiston Fanlar akademiyasi, 1999. – 150 b.
5. Yo’ldoshev, A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. – 304 b.
6. Апресян Ю.Д. А86. Избранные труды, том II. Интегральное описание- языка и системная лексикография. – Москва: Школа. «Языки русской культуры, 1995. - 767 с.
7. Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. — Москва: Наука, 1988.
8. Уфимцева А.А. О типологическом изучении лексики // Структурно-типологическое описание современных германских языков. – Москва. 1977.